



# POYTEXT AHOLISIGA QULAYLIK YARATISH, EKOLOGIYASINI YAXSHILASH VA SIFATLI BOSHQARUV BO‘YICHA YANGI LOYIHALAR ISHLAB CHIQUILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 16-dekabr kuni ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonlari bilan tanishish hamda kelgusidagi vazifalarni faollar ishtirokida belgilab olish uchun Yunusobod tumaniga tashrif buyurdi.



Davlatimiz rahbari dastlab Toshkent shahri Yunusobod tumanida barpo etilgan yirik quvvatli kogeneratsiya stansiyasi faoliyati bilan tanishdi.

Poytaxtda aholi va iqtisodiyot obyektlarini qish mavsumida issiqlik energiyasi bilan barqaror va uzluksiz ta'minlash maqsadida bir vaqtning o'zida elektr va issiqlik ishlab chiqaradigan bir qator zamonaviy kogeneratsiya qurilmalari ishga tushirilmoqda.

Yunusobod tumanidagi 4-issiqlik markazi hududida davlat-xususiy sheriklik asosida barpo etilgan, quvvati 100 MVt bo'lgan mazkur loyiha ana shunday muhim tashabbuslardan biridir.

Xitoyning "CNTIC" kompaniyasi bilan hamkorlikda amalga oshirilgan loyiha 3,5 gektar maydonida joylashdi. Uni moliyalashtirish uchun 65 million dollar to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya yo'naltilirdi.

Davlatimiz rahbari markazning ish jarayoni bilan tanishdi.

Kogeneratsiya inshootiga Buyuk Britaniyaning "Rolls-Royce" kompaniyasining 70 ta gaz-porshen uskunalari o'rnatildi.

Qozonxonalardan iste'molchilargacha bo'lgan issiqlik ta'minoti infratuzilmasi rekonstruksiya qilindi. Issiqlik magistrallari yangilandi. Tarmoqlar izolyatsiyali quvurlar

bilan almashtirildi. Bu esa turli darajadagi energiya yo'qotishlarining oldini olish imkonini beradi.

Markaz ishga tushirilishi natijasida yiliga 876 million kilovatt-soat elektr energiyasi va 858 ming gigakaloriya issiqlik energiyasi ishlab chiqariladi. Shu bilan birga, yiliga 35 million kub metr tabiiy gaz iqtisod qilinadi.

Endilikda poytaxtning Yunusobod, Olmazor, Shayxontohur, Mirzo Ulug'bek va Yakkasaroy tumanlarida joylashgan jami 1 ming 846 ta obyekt doimiy issiqlik energiyasi bilan ta'minlanadi. Ularning 1 ming 400 tasi aholi xonadoni, qolgan qismi esa ijtimoiy soha obyektlaridir. Shuningdek, 292 ming xonadonga elektr energiyasi barqaror yetkazib beriladi.

Loyiha ishga tushishi bilan issiqlik energiyasini ishlab chiqarish uchun sarflanadigan xarajalar 40-45 foizga kamayadi. Atmosferaga chiqadigan ifloslantiruvchi moddalar miqdori sezilarli darajada qisqarib, oqova suv tashlanmalari yuzaga kelmaydi.

Shu yerning o'zida Prezidentimiz kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va issiqlik markazlarini rivojlantirish, Toshkent issiqlik elektr

stansiyasini modernizatsiya qilish, poytaxtda obodonlashtirish ishlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar, shuningdek, anomal sovuq sharoitida xizmatga jalb etiladigan kuch va vositalarni taqsimlash yuzasidan taqdimotlar bilan tanishdi.

Poytaxtda 11 ming 630 ta ko'p qavatli uy bor. Ularga 358 ta boshqaruv servis kompaniyasi xizmat ko'rsatmoqda. Davlatimiz rahbari ularning mavsumga qay darajada shayli bilan qiziqdi.

Shahar sharoitida boshqaruv servis kompaniyalari faoliyati aholi hayoti bilan uzviy bog'liq. Shu bois, ular soat mexanizmiday aniq, uzluksiz ishlashi kerak. Buning uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Endilikda soha xodimlarining dunyoqarashi va yondashuvi ham o'zgarishi lozim. Aholining holidan xabar olish, ko'p qavatli uylarning yerto'la va tom qismlarini, yo'laklar va o'yin maydonchalarini tartibli saqlash zarur, — dedi Prezident.

Shuningdek, energetika, obodonlashtirish, qurilish va servis tarmoqlari mas'ullariga mavsum davomida tizimli va muvofiqlashtirilgan holda ishlash yuzasidan tegishli topshiriqlar berildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Yunusobod tumanida joylashgan "Yunusobod galereyasi" savdo, xizmat ko'rsatish va biznes markaziga tashrif buyurdi.

Ikki yarim gektar maydonni egallagan ushbu yirik maymunda 53 ming kvadrat metrdan ziyod savdo va tijorat maydonlari tashkil etilgan. 14 million dollarlik xorijiy investitsiya hisobiga qator xorijiy brendlar o'z faoliyatini yo'lga qo'ygan.

Umuman olganda, majmua 100 dan ortiq savdo nuqtalari ochilib, 500 ga yaqin ish o'rinlari yaratilgan. Markazga yiliga 2,5 million nafargacha tashrif buyuruvchi kelishi kutilmoqda.

Loyiha qiymati 43 million dollar bo'lgan ushbu majmuaning arxitektura-dizayn yechimi joriy yil MDH davlatlari o'rtasida o'tkazilgan xalqaro me'morchilik tanlovida birinchi o'rinni egallagan.

Prezident shu yerda ochilgan kitob do'konida nashriyotlar vakillari hamda kitobxon yoshlar bilan suhbatlashdi.

Kitob savdosini rivojlantirish, umuman olganda, mutolaa madaniyatini bolalikdan boshlab keng ommalashtirishning muhimligi, shuningdek, ilmiy va badiiy adabiyotlar nashrini kengaytirish, bu borada nashriyotlarni qo'llab-

quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarurligi ta'kidlandi.

Poytaxt faollari, nuroniylar va yoshlar bilan samimiy suhbat bo'lib o'tdi.

— Barcha sohalarda erishilayotgan natijalar, avvalo, yurtimizdagi tinchlik va xalqimiz hamjihatligi samarasidir. Poytaxtimiz kun sayin obod va ko'rkam qiyofa kasb etmoqda. Buni chet eldan kelayotgan mehmonlar ham alohida e'tirof etmoqda. Birdamlikda gap ko'p. Uning ildizi, eng avvalo, mahallalarimizda. Adolatli bahoni ham xalqning o'zi, shu mahalla beradi. Shuning uchun odamlarni rozi qilishga qaratilgan ishlarimizni eng quyi bo'g'indan boshladik, — dedi Prezident.

Markazga tashrif doirasida davlatimiz rahbariga shu yerda faoliyat yuritayotgan "Unicon-Soft" AT kompaniyasi faoliyati taqdim etildi.

Mamlakatimizda axborot texnologiyalari sohasida yaratilgan qulay shart-sharoit va imtiyozlar natijasida davlat boshqaruvini raqamlashtirish, aloqa infratuzilmasini yaxshilash, AT ta'limini rivojlantirish kabi ko'plab yo'nalishlarda milliy dasturiy mahsulot ishlab chiqaruvchilarning ishtiroki izchil kengayib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga muvofiq soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari belgilangan.

Ushbu jarayonga Yunusobod tumanida faoliyat yuritayotgan "Unicon-Soft" kompaniyasi ham munosib hissa qo'shib kelmoqda. 2017-yilda tashkil etilgan korxona shu kunga qadar respublika bo'ylab 70 dan ortiq dasturiy tizim ishlab chiqqan va joriy etgan.

Kompaniyaning barcha hududlar hamda 208 ta tuman (shahar)larda axborot tizimlarini joriy qilish va texnik qo'llab-quvvatlash bo'yicha filiallari mavjud. Ularda 1,5 mingdan ortiq xodim faoliyat yuritmoqda, shundan 80 foizini yoshlar tashkil etadi.

Ayni paytda "Unicon-Soft" tomonidan raqamlashtirish yo'nalishida dasturiy va texnik vositalar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, bo'xona faoliyatini raqamlashtirish, shuningdek, "Raqamli mahalla" platformasini joriy etish rejalashtirilgan. Davlatimiz rahbari kompaniyaning ushbu yo'nalishdagi loyihalari taqdimoti bilan tanishdi.

Davomi 2-betda



## Islohot odimlari

# INSON KELAJAGIGA QURILAYOTGAN ISHONCH

2025-yil ham nihoyasiga yetib bormoqda. Yil yakuni deganda, aksariyat insonlar ko'z o'ngida o'tgan vaqtning sarhisobi, ortda qolgan kunlar, qilingan ishlar va chiqarilgan xulosalar jonlanadi.

Bu pallada inson tabiiy ravishda atrofga nazar tashlaydi, hayotdagi o'zgarishlarni his qiladi.

Kecha iqtisodiy jihatdan qiyinlab yurgan tanishgiz bugun ahvolini yaxshilab, barqaror daromad manbaiga ega bo'lganini ko'rasiz. Yillar davomida chet elning minnatli oshini yeb, oilasidan uzoqda tirikchilik qilgan yurtdoshingiz esa endi o'z yurtida tadbirkorligini boshlab, mehnati bilan ro'zg'orini tiklayapti. Yana kimdir yillar davomida yuragida olib yurgan, ammo amalga oshmay kelgan orzulariga yetayotganini his qilaysiz — uyli,

ishli bo'ldi, shu tariqa kelajakka ishonchi mustahkamlandi.

Shunda insonning dili yorishadi. Chunki ular endi kambag'allik degan tushuncha bilan emas, balki mehnati, tashabbusi va irodasi bilan yurtning faxri, jamiyatning yuzi sifatida tilga olinayotganini anglaysiz. Bu o'zgarishlar raqamlarda emas, balki odamlar taqdirida namoyon bo'layotgan taraqqiyot manzarasidir.

Davomi 3-betda



## Yil sarhisobi

Hozir sayohat qilish boylargagina xos mashg'ulot yoki yillab pul to'plab, amalga oshiriladigan orzu emas. Istalgan kishi daromadining bir qismini ajratib, dam olish, sog'lig'ini tiklash, tabiat go'zalliklaridan bahra olish yoki boshqa maqsadda tez-tez sayohatga otlanishi odatiy va oddiy holga aylandi. Bir yilda kamida bitta davlatga borish hozir urfda!

# ZAMONAVIY TEMIR YO'LLAR

## SAYYOHLARNI OBOD MANZILLARGA CHORLAMOQDA



Bu maqtanish yoki ko'z-ko'z qilish uchun emas, shunchaki yurtdoshlarimiz ham ishlaganiga yarasha dam olishni, sayohatdan zavqlanishni, faqat moddiy orzu-havaslar emas, balki maroqli hordiq chiqarish uchun mablag' ajratishni boshladi. Bir-biriga havas qilib, "men ham mana shu joyga bormasam bo'lmaydi", deyishlar ham yaxshilikka, har

holda sayohat qilgan odam yutqazmaydi, hech bo'lmaganda yangi manzilni ko'rib, taassurotlar oladi.

Xullas, sayohatning foydali jihatlariga ko'p. Muhimi, yurtdoshlarimizni bunga rag'batlantirayotgan omillardan biri farovonlikning oshib borayotganini bilan bog'liq bo'lsa, boshqa tomondan, keyingi yillarda

mamlakatimizda sayyohlik yo'nalishida yaqqol ko'zga tashlanayotgan o'zgarishlardir. Ya'ni ichki turizm salohiyati oshib boryapti. Odamlar nafaqat xorijiy davlatlar, balki yurtimiz bo'ylab sayohat qilishga ham qiziqmoqda.

Davomi 4-betda



## Ogahiy izdoshlari

# MILLIY ADABIYOT –

## MILLAT QALBI VA RUHIYATI KO'ZGUSI











Boshlanishi 1-betda

Bo‘stonliqqacha bir qadam

O‘tgan yili Samarqandga yo‘l olganimda ilk bor tezyurar poyezdga chiqdim. Garchi xizmat safari bo‘lsa-da, o‘zimni xuddi sayyohdek his qildim. Poyezdda biror olis shaharga sayohat qilishni doim niyat qilardim. Xuddi o‘ylaganimdek, buning gashti o‘zgacha ekan. Poyezd oynasidan tog‘lar, bog‘lar, xullas, tabiatni tomosha qilib ketarkanman, nimalamdir yozib, taassurotlarimni muhrlagim keldi.

Odatda shunday: transport vositasi doim sayohatning bir bo‘lagi, hatto eng asosiy qismi bo‘ladi. Ko‘pchilik sayohatdan qaytgach, samolyot, poyezd yoki avtomobildagi taassurotni qo‘shib hikoya qiladi. Shu bois, mamlakatda turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri transport infratuzilmasini yaratish va takomillashtirishdir. Ayniqsa, zamonaviy temir yo‘l tizimi hozir sayyohlarni qiziqtiradigan muhim jihatlardan. Chunki poyezdda sayohat qilish ko‘pchilikka o‘zgacha zavq beradi. Qolaversa, bu yo‘nalish olis manzillarga ham arzon, ham tez va xavfsiz yetib olishga xizmat qiladi.

2025-yil temir yo‘l sohasidagi bir qancha katta ishlar bilan ham esda qolmoqda. Xususan, yurtimizning so‘lim manzillari tomon yangi temir yo‘llar yotqizilib, bekatlar ishga tushirildi. Zamonaviy poyezdlarda yurtdoshlarimiz allaqachon mahalliy yo‘nalishlar bo‘ylab sayohat qilaypti.



Xususan, Toshkent viloyatining Bo‘stonliq tumaniga elektropoyezdda ham borish mumkin. Gap shundaki, joriy yil avvali ayni shu yo‘nalishda yangi temir yo‘l liniyasi hamda bekati ochilishi bilan boshlangan edi. Aniqrog‘i, Chinorkentgacha olib boradigan yangi temir yo‘l ishga tushirilib, 2025-yil 22-yanvarda “Chinorkent” temir yo‘l bekati tantanali ravishda foydalanishga topshirildi.

Undan avvalroq, 2024-yil dekabrda Toshkentdan Xo‘jaketga yangi elektropoyezd qatnovi yo‘lga qo‘yilgan, davlatimiz rahbari 6-dekabrda ayni shu poyezdda Xo‘jaketga borgan edi. Oradan qariyb 1,5 oy o‘tar-o‘tmas, Xo‘jaketdan Chinorkentgacha 1,5 kilometrli temir yo‘l qilindi. Qisqa muddatda 150 metrl perron hamda soyabon qurilib, foydalanishga topshirildi. Shuningdek, imkoniyati cheklangan yo‘lovchilar uchun himoya plitalari o‘rnatilib, yo‘lovchilar o‘tishi uchun tunnel barpo etildi.

Xullas, azaldan so‘lim tabiati bilan tanilgan Bo‘stonliq tumanining hozirgi zamonaviy dam olish manzillariga tez va xavfsiz yetib olish uchun yana bir qulay infratuzilma ishga tushirildi.

Yangi temir yo‘l liniyasi qurilguniga qadar Chinorkentga yo‘l olgan yo‘lovchilar elektropoyezdda “Xo‘jaket” stansiyasigacha, undan uyog‘iga avtomobilda o‘tirib borardi. Bu yo‘lovchilarga noqulaylik tug‘dirgan. Hozir ana shu noqulayliklar bartaraf etilib, Toshkentdan yo‘lga chiqqan yo‘lovchi va sayyohlar zamonaviy elektropoyezdda “Chinorkent” temir yo‘l bekatiigacha yetmoqda.



# ZAMONAVIY TEMIR YO‘LLAR

## SAYYOHLARNI OBOD

### MANZILLARGA CHORLAMOQDA

Yuk tashish hajmi ham ortadi

Ma‘lumotlarga ko‘ra, birinchi temir yo‘l transportining paydo bo‘lishi tog‘-kon va metallurgiya sanoati bilan bog‘liq bo‘lib, XVIII asr oxiri va XIX asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Ayni shu davrda kapitalizmning rivojlanishi yuk aylanmasi tuzilmasini tubdan o‘zgartirgan hamda temir rudasi, ko‘mir, qurilish materiallari



transport xizmati yaratildi. Loyiha 9 oyda amalga oshirilib, Zarafshon daryosi bo‘ylab umumiy 55 kilometrli temir yo‘l yotqizildi. Ishlar xalqaro talab va standartlar asosida bajarildi. Loyiha doirasida 2 ta vokzal, 2 ta ko‘prik, 110 ta sun‘iy inshoot, 13 ta yo‘l kesishmasi va 58 kilometrdan ortiq optik tolali aloqa liniyasi ham qurildi. Jarpepa qishlog‘i va Urgut tumani markazida vokzal binolari barpo etildi.

Ko‘pchilik yaxshi biladi: Urgutda katta sanoat zonasi bor. U yerda milliy brenddagi eng zamonaviy mahsulotlar ishlab chiqariladi. Shu jihatdan yangi temir yo‘l yo‘nalishida nafaqat yo‘lovchi, balki yuk tashish sur‘ati ham oshadi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, yangi temir yo‘l orqali yiliga 359 ming yo‘lovchi va 8,2 million tonna yuk tashish imkoniyati mavjud. Mazkur yo‘nalishda ikki juft shaharlararo yo‘lovchi poyezdi hamda to‘g‘iz juft yuk poyezdi qatnovi yo‘lga qo‘yiladi. Bu Urgut iqtisodiyoti, sanoat, savdo va qishloq xo‘jaligi uchun katta imkoniyatdir.

Avvallari tumanga olib kelinadigan yuklar Jonboy, Samarqand, Zarafshon temir yo‘l stansiyalarida tushirilib, avtomobillarga yuklangan va Urgutga yetkazilgan. Hozir yuklar temir yo‘l orqali to‘g‘ridan to‘g‘ri Urgut tumanining o‘ziga yetib boryapti. Bu orqali transport xarajati qancha tejalayotganini tadbirkorlar darrov hisoblay oladi. Qolaversa, endi qo‘shni Tojikistondan yurtimizga keladigan qardoshlarimiz Jarpepa vokzali orqali Urgutga yoki Samarqand shahriga yetib olishi mumkin. Bu ichki turizm rivojiga ham katta hissa qo‘shadi.

Urgutga temir yo‘l tortilishi shunchaki iqtisodiy yoki infratuzilmadagi yangilanish emas, balki odamlar tumush tarzi, niyatlari ro‘yobi bilan bog‘liq masala. Chunki mazkur temir yo‘l tuman ahli, ayniqsa, tadbirkorlarning bir necha yillik orzusi bo‘lgan. Bu haqda katta-kichik davralarda aytilar, ammo mablag‘ masalasi yuzaga chiqqanda reja ortga surilib, orzu orzuligicha qolavergan. Bugun Urgutga poyezd borganiga odamlarning o‘zi ham ishona olmayapti.

— Joriy yil fevralda yangi “Samarqand — Urgut” temir yo‘l tarmog‘i qurilishi boshlanganida hatto ayrimlar “Bu ish qachon amalga oshadi, endi yana necha yil kutamiz?” deb uning yaqin orada qurib bitkazilishiga shubha qilgandi, — deydi mehnat faxriysi Qudus Asqarov. — Lekin ana-mana deguncha, atigi 9 oyda yangi temir yo‘l qurilib, Urgutga poyezd kelib, aholining ko‘p yillik orzusi ushaldi. Davlatimiz rahbarining o‘zi ushbu temir yo‘l orqali Urgutga kelib, vokzalda biz — nuroniylar, faollar bilan uchrashib, barchamizni yangi poyezd qatnovi bilan tabriklagani quvonchimizni yanada oshirdi.

Eski binodan asar ham qolmadi

Sayohat yoki boshqa maqsadda olis manzilga boradigan inson uchun qulaylik va sifat doim muhim. Ayniqsa, transport vositasi “qo‘nim topadigan” manzil — aeroport yoki vokzalidagi vaziyatlar insonning kayfiyatiga ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Barcha qulayliklarga ega, ortiqcha ovoragarchilik va inson omilisiz ish bitadi, elektron xizmatlar uzoq kutib qolish va vaqt yo‘qotishning oldini oladi.

Bugun nafaqat zamonaviy transport vositalari va infratuzilma, balki yuqori sifati xizmat ko‘rsatish ham turizmni rivojlantirish hamda sayyohlarni jalb qilishning asosiy shartlaridan biriga aylangan. Yurtimiz temir yo‘l sohasida bunga katta e‘tibor qaratilayotir. Yaqinda shu yo‘nalishda yana bir yirik loyiha amalga oshirildi.

Joriy yil 7-dekabrda Xorazm viloyatidagi “Hazorasp” temir yo‘l vokzali tantanali ravishda foydalanishga topshirildi. Vokzalda bo‘lganlar va mehmonlar binoning avvalgi ko‘rinishidan asar ham qolmagani, hozirgisi butunlay yangilandi. Huddudning bugungi kun arxitekturas elementlari asosida barpo etilgani yo‘lovchilar oqimini tez va xavfsiz tarzda qabul qilish, sifatl xizmat ko‘rsatish imkonini beradi. Vokzalidagi barcha jarayon to‘liq raqamlashtirilgan, bu foydalanuvchilarga yanada qulaylik yaratadi. E‘tiborlisi, ta‘mirlashdan keyin “Hazorasp” temir yo‘l vokzali bir vaqtning o‘zida 200, bir kecha-kunduzda esa 1000 ga yaqin yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

— “Hazorasp” temir yo‘l vokzali hududi va binosi to‘liq qayta ta‘mirlanib, zamonaviy talablarga muvofiq yangidan barpo etildi, — deydi “O‘ztemiryo‘l yo‘lovchi” aksiyadorlik jamiyati “Temir yo‘l vokzallari” MCHJ direktori Murodjon Mamaraimov. — Rekonstruksiya ishlari doirasida vokzalning asosiy binosidagi parda devorlari to‘liq yangilandi, ichki pol



# YASHILLANAYOTGAN O‘ZBEK KIMYO SANOATI

## dunyo bozorida raqobatbardoshlikni oshiradi



**Kimyo sanoati mahsulotlari eksporti bo‘yicha mamlakatlar orasida Xitoy yetakchi. Yaqinda ushbu faktni? Aqir hayron qildim. Nafaqat nimasi hayratlanarli? Xitoy buyron Xitoy mahsulotlari ishlab chiqarish va eksport qilish, balki qator iqtisodiy tarmoqlar: energetika, qishloq xo‘jaligi, avtomobil sanoati, to‘qimachilik sohasida ham tengsiz-ku, deyishga shoshilmang. Ahamiyatlisi, aynan kimyo sanoati rivoji mazkur asosiy tarmoqlarning yuksalishiga ham turtki berar ekan.**

Shu bois, O‘zbekistonda ham tarmoq faoliyatini yanada jadallashtirish, ishlab chiqarish va eksport hajmini ko‘tarish borasida yangi tashabbus va loyihalar, samarador mexanizmlar hayotga tatbiq etilmogda. Yaqinda Prezidentimiz kimyo sanoatida ishlab chiqarish va eksportni oshirish hamda tannarxni pasaytirish yuzasidan tayyorlangan tadqiqot bilan tanishdi. Yig‘ilishda 2030-yilgacha tarmoqdagi ishlab chiqarish hajmini kamida ikki barobar oshirish, mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarishni 1,5 barobarga yetkazish va eksport qiymatini 1 milliard dollarga yetkazish rejalashtirilgani qayd etildi.

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 2025-yilning yanvar-oktyabr oylarida O‘zbekistonda 865,8 trillion so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan. Shundan ulushi eng ko‘p yo‘nalishlar sirasiga oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlari — 19,3 foiz, to‘qimachilik mahsulotlari, kiyim-kechak, teri va unga tegishli mahsulotlar — 15,5 foiz, mashinasozlik va metall buyumlari (kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar, elektr uskunalar, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirakamlar, boshqa transport vositalari, boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar, shuningdek, ulami ta‘mirlash va o‘rnatish ishlari) — 18,6



foiz va kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlari — 7,1 foizni tashkil etmoqda. Bundan ko‘rinib turibdiki, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga ko‘ra, mamlakatimizda yetakchi o‘rinlardan birini band qilib turibdi.

Eksportlarning fikricha, sohaning izchil rivojlantirilishi nafaqat eksport salohiyatini oshirish, balki muhim kimyoviy mahsulotlar importiga qaramlikni kamaytirishga xizmat qiladi.

Ayni paytda O‘zbekistonda 180 turdan ortiq kimyo mahsuloti ishlab chiqariladi. Ushbu mahsulotlar nafaqat ichki bozorni ta‘minlaydi, balki xorijiy davlatlarga eksport ham qilinadi. Jumladan, 2024-yilda qiymati 720 million dollarlik 3,6 million tonna mineral o‘g‘it ishlab chiqarilgan. 520 million dollarlik mahsulot 40 dan ortiq davlatga eksport qilindi.

Dunyoda kimyo mahsulotlari bozori yuqori sur‘at bilan o‘sib bormoqda. Jumladan,

2024-yilda global kimyoviy mahsulotlar eksporti qiymati 667,2 milliard dollarga yetdi. Barcha eksport qiluvchi mamlakatlar uchun eksport qilingan kimyoviy mahsulotlarning umumiy dollar qiymati besh yil avvaligiga nisbatan o‘rtacha 32,7 foiz ortdi.

Bu ma‘lumot sohada raqobat muhiti kengayib borayotganini bildiradi. Bunday sharoitda yangi texnologiyalardan foydalangan holda mahsulot sifatiini oshirish, tannarxini hamyonbop qilish zarur.

Yig‘ilishda bu borada muhim kamchilik va muammolar sanab o‘tildi. Jumladan, kimyo sanoatidagi yirik korxonalarda ba‘zi ishlab chiqarish quvvatlari eskirgani tufayli energiya xarajatining yuqoriligi va raqobatbardoshlik pastligi ko‘rsatib o‘tildi. Masalan, azotli o‘g‘itlar tannarxining 55 foizgacha qismi energiya xarajatiga to‘g‘ri kelmoqda. Sohada energiya tejamkor texnologiyalarni joriy qilish va raqamlashtirish orqali chiqimni keskin qisqartirish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi.

Ayniqsa, yig‘ilishda “yashil” mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarish sohasiga alohida to‘xtalib o‘tildi. 2025-yilda Toshkent, Navoiy va Jizzax viloyatlarida “yashil” mineral o‘g‘itlar, sian tuzi, kaliy ksantogenat, kaliy sulfati kabi yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqariladigan loyihalar ishga tushirildi. Ushbu yangi mahsulotlar eksportini oshirishni hozirdan hisob-kitob qilish zarurligi aytiladi. O‘zbekiston bu sohaga alohida e‘tibor bilan qaramoqda.

Prezidentimiz tashabbusi bilan Saudiya Arabistonining “ACWA Power” kompaniyasi bilan hamkorlikda 2023-yil noyabrda Toshkent viloyati Chirchiq shahrida poydevori qo‘yilgan loyiha joriy yil iyunda ishga tushirildi. Shu

Vokzal hududida zamonaviy talablarga mos perron va platforma infratuzilmasi, yoritish tizimi va xavfsizlik kameralari, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun inklyuziv imkoniyatlar, keng va yorug‘ zal, ona-bola zali, dam olish va yuvinish, tibbiyot xonalari, yuqori darajada xizmat ko‘rsatuvchi VIP zal, chiptaxona mavjud. Shuningdek, yo‘lovchilarga yanada qulay bo‘lishi uchun elektron ma‘lumot tablosi o‘rnatilib, elektron chiptalarni ro‘yxatdan o‘tkazish yo‘lga qo‘yilgan.

Vokzal atrofini obodonlashtirish ham loyihaning muhim qismi. Boisi, hozirgi kunda zamonaviy shaharsozlik talablari bevosita ekologik jihatlarni uyg‘unlashtirishni talab etmoqda. Odamlar biror manzilga borib, xizmatidan foydalanar ekan, u yerda yashillik bo‘lishi lozim. Bu nafaqat estetik jihat, balki atrof-muhit tozaligini asrash talablari bilan bog‘liq. “Hazorasp” temir yo‘l vokzali ham bundan xoli emas. Hudud bo‘ylab yashil maydonlar, gulzorlar barpo etilib, ularni parvarishlash uchun zamonaviy sug‘orish tizimi o‘rnatildi.

— Haqiqatan, vokzalning oldingi holati nihoyatda eski edi, — deydi “Hazorasp” temir yo‘l vokzali xodimi Shahinur Qadamova. — Zarur sharoit bo‘lmagan. Bino nihoyatda sovuqliq sabab maxsus formaning o‘zida turib ishlashning imkoni yo‘q edi. Qarang, hozir tashqaridagi sovuq bilinmaydi ham, binoning ichi issiq, yorug‘. Yo‘lovchilarga tez va sifatl xizmat ko‘rsatayotganimizdan mamnunmiz.

\*\*\*

Kutilayotgan loyihalaridan yana biri joriy yil yanvarda qurilishi boshlangan “Bayto‘rg‘on — Parkent” elektrlashtirilgan temir yo‘l liniyasidir. Shu yil boshida davlatimiz rahbarining topshirig‘iga ko‘ra Parkentni poytaxt bilan bog‘lovchi elektrlashtirilgan temir yo‘l qurilishiga start berilgandi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, ayni paytda ishlar jadal ketmoqda.

Reja bo‘yicha elektrlashtirilgan temir yo‘lning umumiy uzunligi 24 kilometrdan iborat bo‘ladi. Loyiha doirasida 2 ta ajratish punkti, 4 ta ko‘prik, 2 ta yo‘l o‘tkazgich, 1 ta tunnel turidagi yo‘l o‘tkazgich, 78 ta suv o‘tkazish inshooti, 7 ta avtomobil yo‘li va temir yo‘l kesishmasi qurilishi ko‘zda tutilgan.

Yevropaning ayrim davlatlarida yaqin masofadagi manzillarga ham temir yo‘l poyezdida borilar ekan. Ya‘ni elektrlashtirilgan poyezdlar xuddi metro, avtobus singari asosiy ichki jamoat transportidir. Bu xuddi tramvay kabi elektr poyezdning xavfsiz, tezkor, arzon va ekologiya toza ekanini bilan bog‘liq bo‘lsa kerak. Qolaversa, ayrim davlatlarning aksar shaharlari tog‘li hududlarda joylashgani bois, u yerlarda aholining poyezdda harakatlanishi qulayroq, nazariyda.

Bizda temir yo‘l poyezdlari asosan turizm yo‘nalishida ommalashtirilishi rejalashtirilgan. Chunki yurtimizda tabiati go‘zal, havosi toza maskanlar bisyor va birin-ketin bu joylar sayyohlik markazlariga aylantirilmoqda. Toshkent viloyatining Parkent tumani ham shulardan biri. Unga olib boradigan yangi elektrlashtirilgan temir yo‘l esa mahalliy va xorijlik sayyohlar oqimini yanada oshiradi.

Qolaversa, loyiha yakuniga yetib, yangi “Bayto‘rg‘on — Parkent” elektrlashtirilgan temir yo‘lning foydalanishga topshirilishi mahalliy aholi uchun yangi ish o‘rinlari yaratib, mamlakat turizm sohasiga katta foyda keltiradi.



tariqa mamlakatimiz yangi sanoat mahsuloti — “yashil vodorod” hamda “yashil” ammiak va mineral o‘g‘itlar ishlab chiqara oladigan sanoqli davlatlar qatoridan joy oldi.

Zavodning yillik ishlab chiqarish quvvati 3000 tonna “yashil” vodorod hamda uni qayta ishlab orqali 30 ming tonna “yashil” mineral o‘g‘it tayyorlashga teng. Bundan tashqari, “yashil” ammiak va “yashil” mineral o‘g‘itlarni eksport qilish, jahon va Yevropa bozorlariga olib chiqish uchun ayni paytda mahsulotni sertifikatlash ishlari ham bajarilmoqda. Dunyoda bu mahsulotlarga talab yil sayin ortib boryapti. Sababi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda “yashil” mineral o‘g‘itlardan foydalanish raqobatbardoshlikni oshiradi.

Xususan, 2025-yil boshidagi ma‘lumotlarga ko‘ra, dunyo miqyosida quyosh paneli bilan ishlaydigan “yashil” vodorod yonilg‘isini ajratib oladigan zavodlar quvvati 3,2 gigavatt bo‘lsa, hayotga tatbiq etilishi kutilayotgan loyihalarning quvvati 10,5 gigavattga tengdir. Shamol energiyasiga tayanganlarining quvvati 2,1 gigavatt, ishga tushirilishi kutilayotganlariniki esa 12,6 gigavattni tashkil etadi. Raqamlardan ham “yashil” vodorod ishlab chiqarish kelajak sohasi ekanini anglash mumkin.

So‘zimiz avvalida ushbu jabhaning boshqa iqtisodiy tarmoqlar rivojiga katta foyda berishini bejiz ta‘kidlamadik. Ayniqsa, kimyo sanoati qishloq xo‘jaligida yangi marralarni zabt etishda qo‘l keladi. Binobarin, mamlakatimizda kelgusi yilda 4,5 million tonna paxta yetishtirish maqsad qilingan.

**Sanjar ESHMURODOV,**  
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Dolzarb mavzu



# SEYSMIK XAVFSIZLIK

## SOHAGA ILMIY VA TEXNIK YONDASHUVLAR JORIY ETILADI

Bugun jahonda talafotli zilzilalar soni ortib borayotgan bir paytda seysmik xavfsizlikni ta'minlash, sohani doimiy takomillashtirish, mavjud va qurilayotgan bino-inshootlarning seysmik mustahkamligini nazorat qilish har qachongidan ham muhim. Mutaxassislarning qayd etishicha, har yili dunyo bo'yicha 100 mingga yaqin zilzila sodir bo'ladi. Bu degani o'rta hisobda har 5 daqiqada bir marotaba yer silkinadi. Aksariyat zilzilalar sezilmaydi. So'nggi 10 yilda dunyoda sodir bo'lgan falokatli yer silkinishlari oqibatida 900 mingdan ziyod inson qurbon bo'lgan, 2,5 milliondan ortiq kishi jabrlangan, umumiy iqtisodiy zarar ko'lami esa 360 milliard dollarni tashkil etgan.

Mamlakatimiz ham seysmik faol hududda joylashgan, tez-tez zilzila sodir bo'lib turadi. Xususan, Toshkent, Farg'ona, Andijon, Surxondaryo viloyatlari seysmik xavfi yuqori hududlar qatoriga kiradi. Shu sababli qurilish standartlariga rioya qilish va zamonaviy seysmik texnologiyalarni qo'llash juda muhim.

So'nggi yetti-sakkiz yilda Toshkent shahrida qurilgan osmono'par binolar qurilish haqidagi ko'plab stereotiplarni yo'qqa chiqardi. Aholining uy-joyga talabini qoplash maqsadida ulkan bunyodkorlik ishlari bajarildi va bu jarayon jadal sur'atda davom etmoqda. Biroq seysmologiyaga oid talablarga rioya qilish, qurilish sifatini ta'minlash hamon dolzarbligini yo'qotmagan. Zero, qayd etilganidek, Toshkent seysmik faol hududda joylashgan.

Seysmik xavfsizlikni ta'minlash, sohaga ilg'or texnologik yechimlarni joriy qilish maqsadida joriy yil 1-dekabr kuni Prezidentimizning "Bino va inshootlarning zilzilabardoshligi va seysmik xavfsizligini ta'minlashda davlat nazorati va boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi.

Hujjat bilan bino va inshootlarning zilzilabardoshligi hamda seysmik xavfsizligini ta'minlashda davlat nazorati va boshqaruvini yanada takomillashtirishga doir asosiy vazifalar belgilandi. Bular ko'p kvartirali uy-joylarni instrumental-texnik tekshiruvdan o'tkazish va monitoring qilishga ixtisoslashgan loyiha tashkilotlarini toifalash va reytingini yuritish, noqonuniy qurilishlarning oldini olish, ularni erta aniqlash va bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish, obyektlar qurilishida zilzilabardoshlikni ta'minlash bo'yicha javobgarlikni kuchaytirish va nazorat qilish sohasidagi korrupsiyaviy omillarni bartaraf etishdan iborat.

— Bino va inshootlarning zilzilabardoshligi

hamda seysmik xavfsizligini ta'minlashda davlat nazorati hamda boshqaruvni juda muhim, — deydi Bosh prokuraturaning boshqarma katta prokurori Farrux Sultonov. — Bu vazifalar farmonda mustahkamlandi hamda qurilish pudrat tashkilotlarining obyektlar qurilishida seysmik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha javobgarligi kuchaytirildi. Shuningdek, binolarning zilzilabardoshligini ta'minlash, ularni nazorat qilish sohasidagi korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish choralari belgilandi. Asosiysi, ushbu hujjat aholini sifatli va mustahkam uy-joy bilan ta'minlash, ayni yo'nalishdagi kamchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Qurilish jarayonida keyingi bosqichlarga ruxsat va xulosa beradigan tashkilotlarning ilmiy-texnik salohiyatiga ko'p narsa bog'liq. Ma'lumotlarga ko'ra, hozir mamlakatimizda instrumental-texnik tekshiruv o'tkazishga



litsenziya olgan 170 ta tashkilot mavjud, ammo ularning reytingi yuritilmaydi.

Farmonga muvofiq, nazorat va monitoring mexanizmlari yanada takomillashtiriladi. Jumladan, 2026-yil 1-yanvardan ikki va undan yuqori qavatli barcha ko'p kvartirali uy-joylarni instrumental-texnik tekshiruvdan o'tkazishga

ixtisoslashgan loyiha tashkilotlarining ro'yxati shakllantiriladi. "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimida ularning reytingi yuritiladi. Instrumental-texnik tekshiruv xulosalarini tavsiyaviy mazzamda berish amaliyoti tugatiladi.

— Hozir 3000 ga yaqin loyihalash tashkiloti mavjud, — deydi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi boshqarma boshlig'i o'rinbosari Sherzod Odilov. — Ayni paytgacha instrumental-texnik tekshiruvdan o'tkazish bo'yicha litsenziyaga ega tashkilotlar salohiyatini aniqlashning imkonini yo'q edi. Endi ularning alohida reytingi yuritiladi. Instrumental-texnik tekshiruv xulosalariga obyektning qayta qurish yoki rekonstruksiya qilish bo'yicha texnik-iqtisodiy asoslantirish bo'limi kiritiladi hamda ushbu xulosalar majburiy ravishda shaharsozlik ekspertizasidan o'tkaziladi. Ko'p kvartirali uy-joylarni boshqarish organlariga ko'p kvartirali uy-joylarni vizual va instrumental-texnik tekshiruvdan o'tkazish ishlarini tashkil qilish vazifasi yuklatiladi. Vizual va instrumental-texnik tekshiruvdan o'tkazish xarajati mahalliy byudjet hisobidan qoplanadi.

Farmonga muvofiq, seysmik faol zonalarda joylashgan obyektlarni vizual tekshiruv natijasidan kelib chiqib, instrumental-texnik

**Seysmik xavfsizlikni ta'minlash, sohaga ilg'or texnologik yechimlarni joriy qilish maqsadida joriy yil 1-dekabr kuni Prezidentimizning "Bino va inshootlarning zilzilabardoshligi va seysmik xavfsizligini ta'minlashda davlat nazorati va boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi.**

tekshiruvdan o'tkazish tartibi joriy etiladi. Shuningdek, maxsus texnik shartlarning mustaqil (xususiy) ekspertiza tashkilotlari tomonidan ekspertiza qilinishi taqiqlanadi. Boisi, mazkur zonalarda joylashgan 10 mingdan ortiq obyekt vizual tekshiruvdan o'tkazilganda ularning 1300 dan ortig'ida instrumental-texnik tekshiruv o'tkazish zarurati paydo bo'lgan.

Binoning zilzilabardoshligini ta'minlashda ikki material: beton va temir asosiy ahamiyatga ega. Biroq ularning qanday markalari qancha miqdorda ishlatilganini xaridor bilmaydi. Bu mas'ul baholovchi va tekshiruvchi tashkilotlarning ishi. Farmon bilan ayni mana shu nozik masala bo'yicha ham nazorat kuchaytirilmoqda.

Xususan, hujjatda belgilanganidek, endi beton va po'lat prokati sifati ishlab chiqarishdan boshlab yuk ko'taruvchi konstruksiyaga shakliga kelguncha qadar bo'lgan jarayonda to'liq monitoring qilinadi. Ishlab chiqarish va qurilish-montaj jarayonidagi barcha bosqich "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimi orqali nazoratga olinadi. Eng muhimi, beton va po'lat prokati ishlab chiqaruvchilar va yetkazib beruvchilarning reytingi yuritiladi.

2024-yil va joriy yilning o'tgan davrida 185 ta bino va inshootga noqonuniy qavat qo'shish holati aniqlangan. Bu holat har qanday odamni o'yantirishi aniq. Tasavvur qiling, hujjatlashtirishda 5 qavatli deb rasmiylashtirilgan uyga yana 3-4 qavat qo'shilishi ko'plab savollarni keltirib chiqaradi. Hujjat talablari endi bunday holatlarga ruxsat bermaydi. Ya'ni qurilishi boshlangan ko'p kvartirali uy-joylarga qo'shimcha qavat qo'shish, balandligini oshirish uchun shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish, tegishli arxitektura-shaharsozlik kengashlari tomonidan ko'rib chiqish, ekspertizadan va qayta ro'yxatdan o'tkazish taqiqlanadi.

Bundan tashqari, qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish hududiy inspeksiyalaridan belgilangan tartibda ruxsat olmagun holda qurilayotgan obyektlarni tashqi muhandislik tarmoqlariga ulash taqiqlanadi. Bunda energiya ta'minoti korxonalarining axborot tizimlari "Shaffof qurilish" bilan "Raqamli hukumat" tizimining idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali integratsiya qilinadi.

E'tibor bersangiz, yangi uy-joylar reklamasida qurilish sifati, narxlar arzonligiga urg'u beriladi. Hamma uyilar shunday bo'lsa qani edi. Lekin raqamlar bunga qarshi. 2023-2025-yillarda sifatsiz va noqonuniy qurilishlar sabab binolarni buzishga qaratilgan 30 ming 325 ta ijoy hujjati chiqarilgan. Biroq 13 ming 939 ta hujjat ijrosi muntazam kechiktirib kelinmoqda.

Farmon bilan bu masala ham hal etiladi. Xususan, 2026-yil 1-yanvardan noqonuniy qurilgan obyektlarni sud tartibida buzish hokimliklar huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyalari tomonidan amalga oshiriladi. Bunda ushbu binolarni buzishga sarflangan xarajatlar qurilish obyekti buyurtmachisi (tashabbuskori)dan qonunchilikda belgilangan tartibda undiriladi. Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan noqonuniy qurilmalarni buzdirish ishlari narxi har yil uchun alohida belgilab boriladi.

Me'yoriy-huquqiy hujjatga muvofiq, 2027-yil 1-yanvarga qadar ko'p kvartirali turar joy obyektlarini qurish uchun tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlari faqat davlat ekspertizasi tashkilotlari tomonidan ekspertizadan o'tkaziladi. Shuningdek, 2026-yil 1-martdan boshlab "Shaffof qurilish" tizimida obyektlarning loyiha-qidiruv, qurilish-montaj va nazorat jarayonlarida qatnashadigan asosiy mutaxassislarning malakasi, ish tajribasi, salohiyatiga oid ma'lumotlarni o'zida aks ettiruvchi reyestr joriy etiladi. Obyektlar bo'yicha barcha bosqichdagi ishlar faqat reyestrga kiritilgan mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi.

Endi qurilish jarayoni nafaqat obyektning o'zida, balki fazodan ham nazorat qilinadi. 2026-yil 1-martdan "O'zbekkosmos" agentligi tomonidan hududlardagi qurilish maydonlari ustidan doimiy kuzatuv olib boriladi. Bunda kosmik suratlard yordamida aniqlangan qurilish obyektlari Qurilish inspeksiyasi tomonidan kameral nazoratdan o'tkazilib, ro'yxatdan o'tkazilmagan obyektlar bo'yicha tekshiruvlar tayinlanadi.

— Bugun noqonuniy qurilishlar faqat arxitektura emas, balki aholi xavfsizligiga ham jiddiy xavf tug'dirmoqda, — deydi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat inspeksiyasi boshlig'i o'rinbosari Jasur Jabborov. — Yangi mexanizmlar ushbu xatti-harakatlarni keskin qisqartirishga xizmat qiladi. "O'zbekkosmos" agentligi bilan hamkorlikda noqonuniy qurilishlar erta aniqlanadi va bu ma'lumotlar Kadastr agentligi va "Shaffof qurilish" tizimiga integratsiya qilish orqali to'planadi.

Har bir xaridor yillar davomida yiqqan puliga uy yoki noturar joy olar ekan, mustahkam va kafolatlangan bo'lishi, undan o'zi va farzandlari xavfsiz foydalanishni xohlaydi. Xo'sh, bu borada talablar qanday? Amaldagi aksariyat shartnomalarda kafolat muddati 1 yil etib belgilanmoqda. Bu qanchalik adolati?

Bu savolga ham farmonda aniq javob bor. Ya'ni xavf-xatar toifasi III va IV toifa obyektlarni qurib, foydalanishga topshirilganda quruvchi tomonidan 10 yildan kam bo'lmagan muddatga kafolat berilishi shart.

Endi qurilgan bino faqat quruvchining kafolati bilan qabul qilinadi. Ushbu talablarni belgilashda Yaponiya, AQSH va Yevropa Ittifoqi davlatlari tajribasi o'rganilib, hisobga olingan.

Davlatimiz rahbarining mazkur farmoni aholini sifatli va mustahkam uy-joy bilan ta'minlash, qurilish sohasida infratuzilmani rivojlantirish va sohaga zamonaviy texnologiyalarni jalb etishga xizmat qiladi.

**Lutfulla SUVONOV,**  
**"Yangi O'zbekiston" muxbiri**

Bugunning gapi

**Mamlakatimizda ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish, maishiy zo'raonlikka uchragan xotin-qizlarni himoya qilish va ijtimoiy reabilitatsiya qilishni ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Tazyiq va zo'raonlikka qarshi kurashish borasida qator normativ-huquqiy hujjatlar imzolaniib, ijrosi ta'minlanyapti. Shuningdek, raqamli xizmatlar yo'lga qo'yilib, ijtimoiy himoya markazlari tizimi tashkil etildi.**

Ayollarga ruhiy inqiroz holatida tezkor tibbiy, psixologik va ijtimoiy xizmat ko'rsatish maqsadida shoshilinch qabul bo'limi mavjud shifoxonalarda birlamchi ko'mak xonalari ish boshladi. Ularning voyaga yetmagan farzandlariga ham birinchi navbatda tez tibbiy yordam ko'rsatiladi. "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlarida uch kungacha psixolog, huquqshunos va ijtimoiy xodim tomonidan mahrum etilgan yordam va xizmatlar taqdim etiladi. Xotin-qizlarga chuqurlashtirilgan reabilitatsiya dasturini o'tash zarur bo'lsa, ular Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markaziga yo'naltiriladi.

Yaqinda mamlakatimiz bo'ylab "Zo'raonlikka qarshi 16 kunlik faol

harakat" xalqaro kampaniyasi o'tkazildi. Yakuniy tadbir sifatida xotin-qizlarga nisbatan zo'raonlik holatlariga milliy javob qaytarish tizimini kuchaytirishga qaratilgan davra suhbatida bu borada qilinayotgan ishlar haqida ma'lumotlar berildi.

— O'tkazilgan so'rovnomalarda qariyb 30 foiz ayol o'z huquqlarini bilmasligini aytgan. 36 foizi turmush o'rtog'i tomonidan ishlab huquqidan mahrum etilgan bo'lsa-da, buni zo'raonlik sifatida qabul qilmagan, — deydi Ijtimoiy himoya milliy agentligi rahbari Mansurbek Olloyorov. — Shu sababli kelgusi yildan Kolumbiya universitetining Ijtimoiy ish maktabi bilan hamkorlikda yangi platformani ishga tushiryapmiz. Bu "Inson" ijtimoiy



**Tazyiq va zo'raonlikning qaysi turi bo'lmasin, u inson hayoti uchun xavfli. Shundan kelib chiqib, jabrlangan shaxslar, boshqa jismoniy hamda yuridik shaxslarning tazyiq va zo'raonlik holati to'g'risidagi murojaati yuzasidan 24 soat ichida xotin-qizlar faoli va mahalladagi profilaktika inspektori tomonidan tazyiq va zo'raonlikni sodir etgan shaxs bilan suhbat o'tkaziladi.**

# XOTIN-QIZLAR HUQUQLARI QAT'IV HIMOYA OSTIDA

xizmatlar markazlarida zo'raonlikka uchragan ayol uchun dastlabki skrinings vosita sifatida ishlatiladi. Savollarga javob berish orqali shaxs zo'raonlik ostidami-yo'qmi, shuni aniqlash imkonini bo'ladi. Tazyiqqa uchragan va uchradim deb hisoblagan har qanday ayol "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlaridan psixologik, yuridik xizmatlarni olishi imkonini bo'ladi. Og'ir holatlarda reabilitatsiya markazlariga joylashtiriladi. Biz zo'raonlikni nafaqat ayollar, balki ijtimoiy himoyaga muhtoj toifa, kam ta'minlangan oilalar, bolalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va keksalar uchun ham xavf sifatida ko'ramiz. Shu bois, yangi qonun hujjatlari ishlab chiqilyapti.

**Ijtimoiy himoya milliy agentligi, BMTning Aholishunoslik jamg'armasi va Oliy Majlis Senati hamkorligida Buyuk Britaniya ko'magi bilan tashkil etilgan yuqoridagi tadbirda raqamli muhitda kuzatilayotgan zo'raonlik turlariga oid muammolarga ham alohida e'tibor qaratildi.**

Tadbinning muhim nuqtasi O'zbekistonda BMT Aholishunoslik jamg'armasining global "BodyRight" kampaniyasi rasmiy ishga tushirilishi bo'ldi. Kampaniya har bir xotin-qizning onlayn zo'raonlikdan himoalanish huquqini ilgari surishga qaratilgan. BMT Aholishunoslik jamg'armasining O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Nigina Abaszade O'zbekiston orqali bir yillik kampaniyani boshlash uchun global harakatga qo'shilayotganini ta'kidladi.

Tazyiq va zo'raonlikning qaysi turi bo'lmasin, u inson hayoti uchun xavfli. Shundan kelib chiqib, jabrlangan shaxslar, boshqa jismoniy hamda yuridik shaxslarning tazyiq va zo'raonlik holati to'g'risidagi murojaati yuzasidan 24 soat ichida xotin-qizlar faoli va mahalladagi profilaktika inspektori tomonidan tazyiq va zo'raonlikni sodir etgan shaxs bilan suhbat o'tkaziladi. Ijtimoiy xodim xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlari holatini dastlabki tarzda baholaydi. Profilaktika inspektori esa himoya orderini rasmiylashtiradi hamda zaruratga ko'ra birlamchi ko'mak xonalariga joylashtirish uchun tegishli dalolatnoma tayyorlashga doir choralar ko'radi. Xotin-qizlar va voyaga yetmagan farzandlar rozilik asosida birlamchi ko'mak xonasiga joylashtiriladi.

Tazyiq va zo'raonlikdan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish to'liq raqamlashtirilib, jabrlanuvchilarni

tezkor aniqlash va ijtimoiy xizmatlarni o'z vaqtida tashkil etish tizimi yo'lga qo'yilgani maqsadga muvofiq. Zo'raonlikka uchraganlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha yangi elektron modul ishga tushirilib, himoya orderlari va jabrlanuvchilarga doir ma'lumotlar "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlariga real vaqt rejimida yetkazib berilishi ta'minlanadi.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi bergan ma'lumotlarga ko'ra, "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlariga tazyiq va zo'raonlikka uchragan xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudlarga davlat bojidan ozod qilingan holda arizalar, shikoyatlar va da'volar kiritish huquqi berildi. Reabilitatsiya markazlariga joylashtirilgan ayollarni kasb-hunarga o'qitish maqsadida Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi hisobidan 3,8 milliard so'm ajratilib, davlat ijtimoiy buyurtmasi asosida nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikda o'quv kurslari yo'lga qo'yildi. Reabilitatsiya markazlarida 5 turdagi (pazandalik, tikuvchilik, kompyuter savodxonligi, bolalar massaji, ayollar sataroshi) o'quv kurslari joriy etilib, 339 ayol o'quv kurslariga jalb etildi. 208 ayol daromadli mehnat bilan band bo'ldi. Reabilitatsiya markazidan chiqarilgan 180 dan ziyod ayolning ijtimoiylashuv holati 6 oy davomida monitoring qilib borilishi yo'lga qo'yildi. Natijada 14 ta holatda qayta zo'raonlik alomatlari erta aniqlanib, o'z vaqtida xotin-qizlar xavfsizligi ta'minlandi. Natijalar ijobiy bo'lsa-da, hali qilinadigan ishlar ko'p. Ularni amalga oshirishga hissa qo'shish hammaning insoniylik burchi. Zero, oilalar, mahallalar tinch bo'lsa, hayotimiz farovon, ishlarimiz yaxshi bo'ladi.

**Munajat RAHIMJONOVA,**  
**jurnalist**





Tarjima nafaqat lisoniy hodisa, balki adabiy-tarixiy, qolaversa, ijtimoiy-siyosiy muammolarni hal qilishga ham daxldor soha. U turli xalq, millat, mamlakatlarni bog'lovchi oltin ko'priq. Tarjima yurtimiz sivilizatsiyaning yuqori cho'qqisiga chiqqan pallalarda boy ilmiy-madaniy merosimizni butun dunyo e'tiboriga taqdim etishga ham xizmat qilgan.

Hozir mamlakatimizda jahon adabiyotining eng yaxshi namunalarini o'zbek tiliga tarjima qilish va chop etish, mumtoz va zamonaviy adabiyotimizning eng sara namunalarini xorijiy tillarga o'g'irish hamda chet ellarda targ'ib etish tizimini yaratish, o'zbek tilida internet adabiyotini shakllantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish ishlari jadal davom etmoqda. "O'zbekiston — 2030" strategiyasining "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha islohotlar" yo'nalishida ham o'zbek va jahon adabiyoti durdonalarini keng ommalashtirish, jamiyatda kitobxonlik hamda aholiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni rivojlantirish mag'sadi ilgari surilgan.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisining birinchi o'rinbosari Minhojiddin MIRZO bilan bugungi kunda badiiy tarjimaning o'rni borasida suhbatlashdik.

— **O'zbek tarjimachilik maktabining o'n asrga yaqin tarixi bor. Bu maktab kitobxonlar qo'liga jahon va qardosh xalqlar adabiyotining dunyog'arashni kengaytiradigan, fikrlashga o'rgatadigan durdona asarlari tarjimasini taqdim qilib kelgan. Bugun ushbu an'ana qanday davom etyapti?**

— "Adabiyot yashasa, millat yashaydi". Buyuk o'zbek shoiri Cho'lonponning bu purna'no so'zlari har bir millat o'zligining shakllanishi, namoyon bo'lishi, saqlanib, rivojlanib borishida adabiyot qanchalar muhim ahamiyatga ega ekanini yaqqol ko'rsatib turibdi. Ana shu ma'noda, har bir millatning ma'naviy kamolotida milliy adabiyoti bilan birga jahon adabiyoti durdonalari, ularda ilgari surilgan gumanistik g'oyalar katta rol o'ynaydi. Aslida, dunyoda hech bir adabiyot o'z milliy chegaralarida rivojlanmaydi. Jahon adabiyoti asrlar davomida bir-birini boyitib, bir-birini ta'sirlantirib, adabiyot istiqbolini yaratadi.

O'zbekistondagi yangi davr ruhi, shiddati, adabiyotga, adabiy aloqalar rivojiga berilayotgan e'tibor barchamizni mamnun etmoqda. Bugungi kunda yurtimizda millat qalbi va ruhiyati ifodachisi bo'lgan milliy adabiyotimizni xorijiy mamlakatlarda keng targ'ib qilishga, chet el adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga o'g'irib, undan xalqimizni bahramand etishga, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, yuksak fazilatlar ruhida tarbiyalashga, kitobxonlikka juda katta ahamiyat berilmoqda. Negaki jahon xalqlari qalbidan allaqachon mustahkam joy olgan, XXI asrda o'z ijodi bilan insoniyatni ezoqlig, olijanoblik kabi yuksak g'oyalar asosida hayot kechirishga da'vat etib kelayotgan milliy va jahon adabiyoti namoyandalari bo'lgan shoir va yozuvchilar asarlari yurtimiz va dunyo xalqlari o'rtasidagi mavjud madaniy, ma'naviy ko'priklarni mustahkamlashga xizmat etayotir.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "adabiy do'stlik — abadiy do'stlik" sari tashlangan ma'naviy qadamdir. O'zbek adiblari, kitobxon xalqimiz jahon xalqlari tarixi, ulug' madaniyati va adabiyotiga katta hurmat bilan qaraydi. Ayni damda adabiy aloqalarning mustahkamlanishi ta'sirida jahonning juda ko'plab ijodiy tashkilotlari va nashrlarining mamlakatimiz adabiyoti, adabiy merosimiz, bugungi kunda ijod qilyotgan adiblarimiz ijodiga qiziqishi yildan yilga ortib bormoqda. O'tgan yillar davomida jahon adabiyotining bebaho mulki bo'lgan qanchadan qancha asarlar o'zbek tiliga, milliy adabiyotimizning nodir namunalari jahon tillariga tarjima qilindi, bu borada o'ziga xos maktab va an'analar shakllandi.

Ta'kidlab o'tganimizdek, jahon adabiyoti hamisha badiiy tarjima asarlari hisobiga boyigan va bu jarayon bugun ham davom etmoqda. Aynan tarjima sabab G'arb Sharq adabiyotidagi go'zal an'analar va ularning zamonaviy talqinidan bahramand bo'lgan, Sharq esa G'arbdagi g'aroyib shakliy izlanishlarni o'zlashtirgan va ikki qutb adabiyoti shu asosda barqaror rivojlanib borgan.

O'zbek tilida ijod qilgan mumtoz shoirilarimizning barchasi iste'dodli ijodkor bo'lish bilan birga mahoratli tarjimon va bilimdon tilshunos bo'lgan. Ular o'z ona tili bilan birgalikda arab, fors, hind, yunon va lotin tillarini ham o'rgangan, bu tillardagi asarlarni bema'lol o'qigan va tarjima qilgan.

O'zbek zamonaviy tarjima maktabi necha yuz yillik tajribaga ega bo'lgani holda bu boradagi an'analariga tayanib, XX asr adabiyotining ma'rifatparvar vakillari — jadidlar ilgari surgan ilg'or tamoyillarga ergashib rivojlandi. Bugungi kunda Prezidentimizning qardosh va xorijiy davlat rahbarlariga sovg'a qilyotgan kitoblari — V.Gyugoning Fransiya Prezidenti E.Makronga hadya etilgan "Kulayotgan odam" romani, R.Tagorning Hindiston Bosh vaziri Narendra Modiga tortiq qilingan 8 jildli asarlar to'plami, Y.Kolasning Belarus Prezidenti A.Lukashehenko taqshirilgan "Qadrdon qo'shiqlar" she'riy to'plami, Jomiyning Tojikiston Prezidenti E.Rahmonga berilgan "Saylanma"si, Maxtumqulining Turkmaniston xalq yetakchisi G.Berdimuhamedovga sovg'a qilingan "Saylanma"si ham xalqlar, millatlar o'rtasidagi do'stona munosabatlarni yanada mustahkamlashda adabiyot qanchalar muhim o'rin tutishini yaqqol namoyon etib turibdi.

Shu ma'noda, badiiy tarjima bugungi kelib, O'zbekistonning nafaqat madaniy, balki ijtimoiy va siyosiy hayotining uzviy qismiga aylandi.

O'zbek badiiy tarjima maktabi an'analari davom etib kelyapti. Bugun badiiy tarjimada G'arb adabiyotini asliyatdan o'g'irish an'anasi jadal rivojlanmoqda. Bu borada oldingi o'rinlarni yoshlar egallamoqda. Shu bilan birga, adabiyotimiz Sharq va G'arbnning zamonaviy an'analari bilan uyg'unlashgan holda yangi bir qiyofada yashamoqda. Bu ham badiiy tarjimaning xizmatidir.

— **Davlatimiz rahbari 2024-yil 4-iyunda "Badiiy tarjima sohasida Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi xalqaro mukofotni ta'sis etish to'g'risida"gi qarorni imzolagan edi. Ayni pallada uning ijrosiga qaratilgan ishlar qanday bosqichda?**

— Mazkur qaror bugungi adabiy hayotning eng muhim voqeasi bo'ldi. Bu mukofot milliy adabiyotimizga jahon adabiyotidagi ilg'or shakl va izlanishlarni olib kirayotgan, o'zbek adabiyotining sara asarlarini xorijda targ'ib qilyotgan fidoyi tarjimonlar mehnatiga munosib rag'batdir.

Yozuvchilar uyushmasi ushbu mukofotning ishchi organi hisoblanadi. Qoidaga ko'ra, xalqaro mukofot tanloviga asarlarni tarjimonlarning o'zi yoki shu asarni chop qilgan nashriyotlar taqdim etdi. Tanlov 1-iyunda e'lon qilingandan keyin asarlar uch oy ichida qabul qilindi. 3-sentabrdan asarlarni targ'ib chiqish boshlandi. Taniqli tarjimonlar, adabiyotshunolar, yozuvchi va shoirlardan iborat hay'at ikkita tarkibda ishladi. Biri o'zbek tilidan xorijiy tilga qilingan tarjimalarni ko'rib chiqsa, ikkinchisi jahon tillaridan o'zbek tiliga o'g'irilgan asarlarni nazardan o'tkazdi.

Hozir tanlov o'zining hal qiluvchi bosqichiga yetib keldi, yaqin orada mukofotni topshirish marosimida Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi



xalqaro mukofot sovrindorlari nomi e'lon qilindi. Bu tanlov tarjimonlar uchun katta imkoniyatlar eshigini ochadi. Avvalo, adabiy jamoatchilikning yuksak e'tirofi, qolaversa, tarjimonning ijodiy biografiasini uchun juda yaxshi tavsif, albatta, salmoqli moddiy rag'bat — bularning bari tarjimonning mehnati, uning keyingi qadamlari uchun ijobiy turki vazifasini o'taydi.

Tanlov badiiy tarjima sohasining rivoji uchun ham muhim ahamiyatga ega. Tarjimashunoslik sohasi uchun tadqiqot obyektlari yaratiladi, o'zbek adabiyoti targ'iboti uchun uqlar kengayadi, yosh tarjimonlarni yetishtirish ishlari ham yangi bosqichga ko'tariladi, chunki yoshlar intilishi uchun yuksak e'tirof cho'qqisi yuzaga keladi.

— **Yozuvchilar uyushmasi tomonidan bugungi kunda badiiy tarjimani rivojlantirish bo'yicha qilinayotgan ishlar, yangiliklar, rejalar bilan o'rtoqlashsangiz.**



— O'zbekistonda badiiy tarjima faoliyatining rivojlanish istiqbollari, agar bugungi kunning sur'atini hisobga olsa, albatta, kechagidan balandroq. Chunki bugun badiiy tarjimaga ehtiyoj kuchli, mana shu talab rivojlanish uchun turki bo'lib xizmat qilmoqda. Shu yil boshidayoq Do'rmonda "Badiiy tarjima: kecha, bugun, ertaga" forumi o'tkazildi. Unda tarjima oldida turgan vazifalar muhokama qilib olindi.

Uyushmada Xalqaro aloqalar va badiiy tarjima bo'limi faoliyat yuritadi, u badiiy tarjima sohasi uchun mas'ul bo'linmadir. Shuningdek, jamoatchilik asosida ishlaydigan Badiiy tarjima kengashi ham bor. Badiiy tarjima sohasidagi ishlarni mana shu ikki bo'limma muvofiqlashtirib boradi. Tarjima sohasini rivojlantirish uchun tarjimonlar va tarjimashunoslarni jamlab o'tkaziluvchi qator tadbirlarimiz borki, shular doirasida sohaning mavjud muammolari tahlil qilinib, yechimlar izlanadi.

**O'zbek zamonaviy badiiy tarjimachiligining qamrovi juda keng. Bunga amin bo'lish uchun birgina "Jahon adabiyoti" jurnalini varaqlab ko'rishning o'zi kifoya qiladi.**

Yaqinda Parkent tumanidagi "Zarkent" ijod uyida Respublika tarjimonlari II forumi o'tkazildi. Forumda uch yo'nalish — turkiy tillardan tarjima, ingliz tili va rus tili orqali tarjima qilish bo'yicha yoshlar uchun mahorat saboqlari, tajribali tarjimonlar bilan ijodiy suhbatlar va tahlillar bo'lib o'tdi. Respublika yosh ijodkorlarining Zomin seminarida har yili badiiy tarjima yo'nalishida maxsus "mahorat saboqlari" bo'lib o'tadi va uning natijasida yangi-yangi iqtidor egalari aniqlanadi. "Do'rmon bahori" forumi esa badiiy tarjima orqali O'zbekistondagi rusiyazbon adabiyotni o'zbek o'quvchisiga, o'zbek adabiyotini rus o'quvchisiga yetkazish masalasini muhokama qiladi.

Hozir o'zbek tarjimachiligini yanada rivojlantirish uchun zarur bo'lgan barcha tagzaminlar mavjud. Yozuvchilar uyushmasi mana shu tagzaminidan ko'mak olib, milliy adabiyotimizni yangi an'analar bilan boyitish, shu bilan birga, o'zbek adiblarini jahon miqyosida tanitish asoslarini yaratishga intilmoqda.

— **Badiiy tarjima faoliyatining asosiy yo'nalishlari qanday, bu borada qaysi**

**mamlakatlar bilan aloqalar faol, shuningdek, qaysi o'zbek yozuvchisining asarlari xorijiy tillarga, qaysi xorijiy yozuvchining asarlari o'zbek tiliga tarjima qilinib, adabiy jamoatchilik va o'quvchilar o'rtasida katta qiziqish uyg'otgan?**

— O'zbek zamonaviy badiiy tarjimachiligining qamrovi juda keng. Bunga amin bo'lish uchun birgina "Jahon adabiyoti" jurnalini varaqlab ko'rishning o'zi kifoya qiladi. Yanvar sonining o'zida Kanada, Kolumbiya, Irlandiya, Rossiya, Ozarbayjon, Turkiya adabiyoti vakillari asarlaridan tarjimalar jamlangan. Shu ma'noda, qaysi mamlakatning adabiyoti ko'proq tarjima qilinadi degan savolga qisqa javob berishning imkoni yo'q. Bugun turkiy xalqlarning zamonaviy adabiyotiga qiziqish kuchli. Buni so'nggi paytlarda ijtimoiy va madaniy hayotimizda ro'y berayotgan yangilanishlar bilan izohlash mumkin.

Qirg'iz adabiyotida Chingiz Aytmatov ortidan ergashib kelayotgan adiblar ijodi ixlosmandlarni juda qiziqitiradi. Shu ma'noda qirg'iz nasridan so'nggi ikki yil ichida qator yirik tarjimalar qilindi. Masalan, Tugalboy Sidiqbekovning "Ko'k yalov", Sulton Rayevning "To'fon" romanlarining o'zbek tilida chop etilishi katta yangilik bo'ldi. Ozar adabiyotiga qiziqish bizda hamisha kuchli edi. Yozuvchi Iftixorning "Nizomiy Ganjaviy" tarixiy dramasi o'zbek tiliga o'g'irilishi ham ijobiy voqealardan biridir. AQSH, Avstraliya va Yevropa adabiyotidan tarjimalar ilgari faqat rus tili orqali amalga oshirib kelingan edi. So'nggi paytlarda asarni asliyatdan o'g'irish amaliyoti kuchayib boryapti.

Ibrohim G'afurov, Abdulla Sher, Mirzali Akbarovdek ustozlar ortidan kelayotgan Alisher Otayev, Abduqahhor Iminov, Shahnaza Rahmonova, Furqat Soatov, Davronbek Mamarasulov, Qandilat Yusupova, Nazira Yusupova kabi tarjimonlar bugungi kunda ingliz, nemis, fransuz tillarida yozilgan nasriy asarlarni bevosita asliyatdan tarjima qilyotir. Sharq adabiyoti, xususan, turkiy tili adabiyot vakillari ijodini asliyatdan o'g'irayotgan Tohir Qahhor, Murtazo Saidumarov, Shorustam Shomusarov, Mozaffar Ahmad, Boboxon Muhammad Sharif, Shermurod Subhon, Shahlo Qosimova ortidan kelayotgan yangi avlod — Dilafroz' Muhiddinova, Shahlo Ahmedova, Rahmat Bobojon, Sevara Alijonova, Zilola Abduq'afurova, Jasur Ziyamuhamedov, Alisher Sabriy arab, turk, koreys, xitoy, fors tillarida yaratilgan asarlarni asliyatdan o'zbek tiliga o'g'irmoqda.

Bugungi kunda Yozuvchilar uyushmasi yetti mamlakat — Turkiya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Belarus Yozuvchilar uyushmalari va Saudiya Arabistondagi ikkita ilmiy-adabiy tashkilot bilan hamkorlik haqida memorandum imzolagan. 2023-yilda ushbu hamkorlik doirasida Qozog'istonning "Tansholpan" jumalida 27 nafar yozuvchi va shoirimizning she'r va hikoyalari qozoq tilida chop qilindi. 2024-yilda Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asari arab tilida Misrda va Saudiya Arabistonda nashr etilgan bo'lsa, ushbu o'lmas asar shu yilning o'zida xitoy tilida Pekinda nashr etildi, O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi ingliz tilida AQSHda, Bokuda Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romani ozarbayjon tilida, Normurod Norqobilovning nasriy to'plami turk tilida bosildi. 2025-yil Moskvada "Антология узбекской поэзии" kitobining 3-jildi, "O'tkan kunlar" romani qirg'iz tilida, Anvar Obidjonning "Meshpolvon" qissasi hind tilida, Muhammad Alining "Kleopatra" romani rus tilida nashr qilindi. Bu ma'lumotlar bugungi adabiy aloqalar dengizidan bir necha tomchi, xolos.

— **Turkiy xalqlar adabiyotining yuz jildligi o'qirmanlarga tortiq qilingan edi. Xalqaro jamoatchilikning munosabati qanday bo'ldi?**

— "Turkiy adabiyot durdonalari" 100 jildli asarlar majmuasi 2022-yilda chop etilgan bo'lsa-da, qardosh o'lkalardagi adabiy tashkilotlarning hayratlari hanuz tinmagan. Chunki bunday ko'lamdor, katta loyiha turkiy tili boshqa mamlakatlarda amalga oshirilmagan. O'tgan davr ichida majmua taqdimotlari Turkiya, Ozarbayjon va Qirg'izistonda o'tkazildi, bir qancha xalqaro kitob yarmakalarida

namoyish etildi. Majmua barcha viloyat va oliy o'quv yurtlari kutubxonalarga topshirilgan, O'zbekistonning har bir viloyatida bu majmuani nashrga tayyorlagan ijodkorlar bilan uchrashuvlar, taqdimotlar bo'lib o'tdi. Ushbu majmua turkiy tili adabiyotning bor salobatini namoyish etish barobarida kitobxonlar uchun turkiy tili davlatlar adabiyoti qiyofasini o'zida jamlagan beqiyos nashr, o'zbek badiiy tarjimachiligining iqtidorini ko'rsatadigan namuna bo'lib qoldi.

Hozir keyingi ikki-uch yilga mo'ljallangan ikkita katta loyiha boshlanmoqda. Bular "Turkiy ellar folklori durdonalari" va "Jahon bolalar adabiyoti durdonalari" 100 jildliklarini o'zbek tilida nashr etish vazifasidir. Agar "Turkiy ellar folklori durdonalari" muayyan jug'rofik o'lcham bilan kifoyalansa, "Jahon bolalar adabiyoti durdonalari" asarlar majmuasi beshta qit'a bolalar adabiyoti vakillari ijodini qamrab oladi. Ya'ni 5 ta qit'adagi 65 ta davlatda istiqomat qilyotgan bolalar shoirilar va yozuvchilari asarlari o'zbek tilida chop etiladi. Shu kungacha "Jahon bolalar adabiyoti durdonalari" 100 jildligiga jami 428 muallifning asarlari kiritilishi aniqlangan va bu raqam nashr ishlarga tayyorgarlik jarayonida yanada ko'payishi mumkin.

Shunday ko'lamdor loyihalar iste'dodli tarjimonlarning boshini qovushitirishni taqozo qiladi. Yozuvchilar uyushmasi tashkili qilyotgan anjumanlar, konferensiya va yoshlar uchun mahorat saboqlari yangi loyihalarga tayyorgarlik ishlarni muvofiqlashtirishda katta ahamiyatga ega.

— **Bugungi kundagi tarjima asarlarining ma'naviy qiyofasi nimalarga bog'liq holda shakllanmoqda?**

— Bu haqda gapirganda, bir necha muhim jihatga e'tibor qaratish lozim. Jamiyatning globallashuvi va madaniy mulqotning ortishi bilan tarjima asarlari nafaqat adabiyot sohasida, balki umumiy madaniy hayotda ham muhim rol o'ynaydi. Har bir tarjima asari bir madaniyatni boshqasiga ko'chirishning bir qirasi bo'lib, uning ma'naviy, adabiy va ijtimoiy qiyofasi har xil omillardan ta'sirlanadi.

Globallashuv kuchayishi bilan madaniy almashinuv yanada tezlashdi. Bu esa turli xalqlar, millatlar va madaniyatlar orasida adabiy aloqalarni kuchaytiradi. Tarjima asarlari ushbu jarayonda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Tarjima asarlari til va undagi ma'naviy xususiyatlarni saqlash yoki o'zgartirish orqali o'z ma'naviy qiyofasini olib keladi. Tarjima asarlarining ma'naviy qiyofasi shundan iboratki, ular odatda ma'nolarning yorqinligi, obrazlar, ramzlar va sezgilarning konversiyasiga ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviy ta'sirning yuzaga kelishi chog'ida tarjimonning shaxsiy yondashuvi, ijodiy qobiliyati va madaniy bilimlari muhim rol o'ynaydi.

Badiiy adabiyot tarjimasida global ijtimoiy muhitning kuchli ta'siri sezilmoqda. Boshqa mamlakatlardan kelgan asarlar ko'pincha o'sha yurtlardagi ijtimoiy va siyosiy holatlarga hamda umumiy inson huquqlari, adolat, inson huquqlariga oid fikrlarni o'z ichiga oladi. Bunday asarlar global ma'naviy qiyofa bilan hamohang bo'ladi.

Bugungi kundagi tarjima asarlarining ma'naviy qiyofasi jamiyatning globallashuvi, madaniy-ijtimoiy muhit, tilning o'zgarishi va madaniy almashinuv bilan bog'liq. Tarjima asarlari ham ijodiy, ham madaniy, ham ma'naviy nuqtayi nazardan katta ahamiyatga ega. Ma'naviy mezonlar va madaniy xususiyatlarni aniqlash va ularni saqlash tarjimonning eng muhim vazifasi darajasiga ko'tarilgan.

O'zbek tarjimonlari mana shunday sharoitda milliy adabiyotimizni boyitish yo'lida mehnat qilmoqda. Aytish kerakki, badiiy tarjima ijodkorning tanilishidagi eng muhim vositadir. Shu ma'noda, o'zbek adabiy muhitiga kirib kelishni istovchi xorijiy ijodkorlar talaygina. Lekin ulardan faqatgina xalqimiz mentalitetiga mos, uning badiiy tafakkurini kengaytiruvchi, umuminsoniy tamoyillari ruhida gi asarlarina o'zbek adabiy maydoniga kirib kelishi kerak. Tarjimonlar esa bu borada chinakam zargar vazifasini ham bajaradi. Bir tomondan, tarjima uchun chinakam ma'naviy qimmatga ega asarni tanlab olsa, ikkinchi tomondan, ushbu asarning asl qimmatini saqlagan holda tarjima qilishga intiladi.

**Suhbatdosh: Nodir MAHMUDOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri**

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS:  
**O‘zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:

**Salim DONIYOROV**

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatl  
chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi  
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
**Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — G-1246.  
34211 nusxada bosildi.  
Hajmi — 3 taqob. **Ofset usulida** bosilgan. Qog'oz bichimi A2.  
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi  
boshmaxonasida chop etiladi.  
Boshmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Manzillimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy